



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buyuk  
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqqan boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 3-iyul, № 132 (8755)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHHT SAMMITIDA ISHTIROK ETADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning taklifiga binoan Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisi va "ShHT plyus" formatidagi uchrashuvda ishtirok etish uchun 3-4-iyul kunlari amaliy tashrif bilan Ostona shahrida bo'ladi.

Sammit kun tartibidan ShHT doirasidagi ko'p qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirish va tashkilot faoliyatini takomillashtirishning dolzarb masalalari o'rin olgan. Xalqaro va mintaqaviy hamkorlikning muhim jihatlari ham ko'rib chiqiladi.

Yig'ilish yakunida Ostona deklaratsiyasi hamda iqtisodiyot, xavfsizlik, ekologiya, energetika, turizm va boshqa ko'plab yo'nalishlarda sheriklikni kengaytirish bo'yicha hujjatlar qabul qilinishi rejalashtirilgan.

Tashrif doirasida O'zbekiston yetakchisi xorijiy delegatsiyalar rahbarlari bilan qator ikki tomonlama uchrashuvlar ham o'tkazildi.

O'z.A.

ШАНХАЙ ХАМКОРЛИК ТАШКИЛОТИ  
ДАВЛАТ РАХБАРЛАРИ КЕНГАШИ МАЖЛИСИ



2024 йил 3-4 июль

O'zbekiston – ShHT:

## XALQLAR VA DAVLATLAR TINCHLIGI HAMDA FAROVONLIGI YO'RIDAGI HAMKORLIK

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 3-4-iyul kunlari amaliy tashrif bilan Ostona shahrida bo'ladi va Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT)ning navbatdagi sammitida ishtirok etadi.

### Sammit oldidan

ShHT 2001-yilda tuzilgan mintaqaviy xalqaro tashkilotdir. O'zbekiston Qozog'iston, Xitoy, Qirg'iziston, Rossiya va Tojikiston bilan birga tashkilotning asoschilaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda ShHTga to'qqiz davlat a'zo. Bundan tashqari, uch davlat unga kuzatuvchi sifatida qo'shildi, 14 davlat tashkilot bilan muloqot bo'yicha hamkor maqomiga ega. Bu ShHTning o'tgan yillar davomida nufuzi va xalqaro siyosatdagi roli hozirgi murakkab geosiyosiy sharoitda mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi.

Bugungi kunda ShHTga a'zo davlatlarning umumiy maydoni 34 million kilometr kvadratni, ya'ni Yevroosiyo qit'asining 60 foizini tashkil etadi. A'zo davlatlar aholisi 3 milliardga yaqin yoki Yer yuzi aholisining qariyb 42 foiziga teng. Shuningdek, ShHT mamlakatlari iqtisodiyoti jahon

iqtisodiyotining 24 foizdan ortig'ini qoplaydi.

Tashkilotga a'zo davlatlar o'rtasida o'zaro ishonch, do'stlik va yaxshi qo'shniçilik munosabatlari mustahkamlash, mintaqada tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash yo'lida ko'p qirrali hamkorlikni rivojlantirish, yangi demokratik, adolatli va oqilona siyosiy-iqtisodiy xalqaro tartib o'rnatishga ko'maklashish, terrorizm, separatizm va ekstremizmga, giyohvandlik vositalari va qurol-yarog' savdosi, transmilliy jinoyatlarning boshqa turlariga birgalikda qarshi oqilona kurashish ShHTning asosiy maqsad va vazifalari hisoblanadi. A'zo davlatlar, shuningdek, xalqaro huquqning asosiy tamoyillari asosida turlarida samarali mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirmoqda.



## YUKSAK ISHONCHGA MUNOSIB BO'LISH MAS'ULIYATI

"PARIJ – 2024" MUSOBAQALARIDA QATNASHADIGAN HAR BIR SPORTCHIQALBIDA JO'SH URIB TURIBDI



Poytaxtimizdagi Olimpiya va paralimpiya shon-shuhrati muzeyida Fransiyaning Parij shahrida iyul-avgust oylarida bo'lib o'tadigan XXXIII yozgi Olimpiya o'yinlarida ishtirok etadigan O'zbekiston sport delegatsiyasini kuzatish marosimi bo'lib o'tdi.

Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi T. Norboeva, Osiyo Olimpiya kengashi vitse-prezidenti O. Umarov, Davlat xavfsizlik xizmati raisi, O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi raisi A. Azizov, O'zbekiston Respublikasi sport vaziri A. Ikromov, Milliy olimpiya qo'mitasi bosh kotibi O. Qosimov va boshqa rasmiylar qatnashdi.

Ta'kidlanganidek, yangi O'zbekistonda keyingi yillarda sportni jadal rivojlantirish, sportchilar uchun zamonaviy shart-

sharoitlarni yaratish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

So'zga chiqqanlar joriy yozgi Olimpiya va Paralimpiya o'yinlarida sportchilarimiz berilayotgan e'tiborga munosib bo'lib, shohsupalarning eng yuqorisidan joy olishga, yurtimiz bayrog'ini ko'klarga ko'tarishiga hamda davlatimiz madhiyasining baralla yangrashiga o'z hissasini qo'shishiga ishonch bildirdi.

To'rt yillikning eng nufuzli sport anjumani – Olimpiya hamda Paralimpiya

musobaqalarining mamlakatimiz nomi, nufuzi va sharafini dunyoga tanitishda ahamiyati beqiyos. Shu bois mazkur tadbirlarga puxta hozirlik ko'rilishi Prezidentimizning doimiy diqqat markazida turadi.

Jumladan, davlatimiz rahbarining 2021-yil 5-noyabrda "2024-yil Parij shahrida (Fransiya) bo'lib o'tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o'yinlariga O'zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to'g'risida"gi qaroriga muvofiq ushbu jahonshumul musobaqalarga sportchilarimizni tayyorlash dasturi qabul qilindi. Sportchilar uchun hamma qulaylikni yaratish bo'yicha keng ko'lami chora-tadbirlar ko'ridi.



## MEHNAT MUNOSABATLARIDA IJOBiy NATIJALARGA ERISHILDI

Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat masalalari bo'yicha milliy komissiyaning navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Majlisni Milliy komissiya raisi Tanzila Norboeva olib bordi.

### Milliy komissiyada

Tadbirda Milliy komissiya va hududiy komissiyalar a'zolari, mutasaddi vazirlik va idoralar, NNT vakillari ishtirok etdi. Unda mazkur sohada amalga oshirilayotgan ishlar, erishilgan natijalar hamda kelgusidagi vazifalar muhokama qilindi.

Qayd etilganidek, oxirgi yillarda yurtimizda sohaga doir qonunchilik asoslarini mustahkamlash, qonunchilik bazasini xalqaro standartlarga muvofiq lashtirish, Xalqaro mehnat

tashkilotining konvensiyalarini ratifikatsiya qilish ishlariga alohida e'tibor qaratildi. Pirovardida esa inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoyalash, mehnat munosabatlari xalqaro standartlar asosida takomillashtirish borasida qator ijobiy natijalarga erishildi. Muhimi, bu xalqaro doirada ham e'tirof etib kelinmoqda.

Bunga yorqin misol sifatida iyun oyida Jeneva shahrida Xalqaro mehnat konferensiyasining 112-sessiyasi doirasida Xalqaro mehnat tashkilotining Ma'muriy kengashi a'zoliciga bo'lib o'tgan

saylovda O'zbekiston XMT Yevropa mintaqaviy guruhida 194 ta ovoz bilan birinchi o'rinni egallaganligini keltirish mumkin.

Majlisda amalga oshirilgan ishlar bilan bir qatorda, sohada jiddiy e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan masalalar mavjudligi ham urg'ulandi.

Mehnat munosabatlari xalqaro standartlardan kelib chiqqan holda yanada takomillashtirish, norasmiy bandlikni qisqartirish, xodimlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, qolaversa, mehnat sohasida gender tenglikni ta'minlash yo'nalishlaridagi ishlarni yanada kuchaytirishni davr taqozo etmoqda.



## PARLAMENTLARARO MULOQOT BOSHQA SOHALARDAGI ALOQALARDA HAM MUHIM AHAMIYATGA EGA



Oliy Majlis Senati Raisining birinchi o'rinbosari Sodiq Safoyev Saudiya Arabistoni Sho'ro Kengashi "Saudiya – O'zbekiston" parlamentlararo do'stlik qo'mitasi raisi Muhammad bin Abdulaziz al-Jarba boshchiligidagi delegatsiya a'zolari bilan uchrashdi.

### Uchrashuv

Unda mamlakatlarimiz o'rtasidagi do'stona munosabat va o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish hamda turli sohalarda, xususan, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar, parlamentlararo almashinuvni yanada faollashtirishning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

O'zbekiston va Saudiya Arabistoni o'rtasidagi o'zaro hamkorlik nafaqat ikki tomonlama aloqalarni mustahkamlash, balki mintaqaviy barqarorlik va rivojlanishga ham hissa qo'shmoqda.

Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik ko'lami kengayib bormoqda.

M. al-Jarba O'zbekistonning

parlament instituti faoliyatini yuqori baholab, ikki davlat qonun chiqaruvchi organlari aloqalarini yanada kengaytirishga hissa qo'shishga tayyorligini bildirdi. Uning qayd etishicha, parlamentlararo aloqalar nafaqat siyosiy muloqotni, balki iqtisodiy, madaniy va gumanitar sohalaridagi hamkorlikni ham rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Muloqot chog'ida ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlar BMT, Islom hamkorlik tashkiloti kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar doirasida izchil rivojlanib borayotganligi alohida ta'kidlandi.

Uchrashuvda ikki tomonlama munosabatlarni, xususan, parlamentlararo aloqalarini yanada kengaytirishga kelishib olindi.

"Xalq so'zi".

## INSON HUQUQ VA ERKINLIKLARINI HIMOYA QILISHDA MANFAATLAR MUVOZANATI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda dastlab majlisga raislik qiluvchi quyi palata Spikeri o'rinbosari U. Inoyatov o'tgan haftada mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy va tashqi siyosiy hayotidagi muhim voqealarga to'xtalib o'tdi. Jumladan, 1992-yil 2-iyulda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi to'g'risida"gi Qonunning ahamiyatiga e'tibor qaratilib, unda Davlat gerbi mamlakatimiz mustaqilligining ramzi ekanini belgilab qo'yilgan alohida qayd etildi.

### Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

Shuningdek, majlisda sudlarda ishlarni ko'rishda qonuniyligni mustahkamlashga, yetim bolalarni va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy jihatdan himoya qilishni kuchaytirishga, tergov va sud jarayonida ishtirokchilarning huquq va erkinliklarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yutuqlaridan foydalangan holda samarali himoya qilishga, kosmik faoliyat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga, maxsus iqtisodiy zonalarni boshqarish tizimini yanada soddalashtirishga, aholini shovqinning zararli ta'siridan himoya etishga, kommunal

to'lovlarni sud orqali undirishda qulayliklar yaratishga doir qator qonun loyihalari ko'rib chiqildi.

### Prokuror qanday holatda protest keltirishi mumkin?

Majlisda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga sudlarda ishlarni ko'rishda prokurorning vakolatlarini ta'minlashga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ikkinchi o'qishda muddamodda ko'rib chiqildi.



# FAOL TASHQI SIYOSAT YURTIMIZ XALQARO NUFUZINI YANADA MUSTAHKAMLAYDI

Keyingi yillarda O'zbekiston va Birlashgan Millatlar Tashkiloti o'rtasidagi aloqalar sifat va miqyos jihatdan yangi pog'onaga ko'tarilib bormoqda. Mamlakatimiz BMT va uning institutlari bilan hamkorlikni faol rivojlantirayotir. O'z navbatida, O'zbekistonning tashabbuslari BMT darajasida qo'llab-quvvatlanmoqda. Tashkilot Bosh kotibi Antoniu Guterrishning yurtimizga bu galgi, ikkinchi tashrifi O'zbekistonga xalqaro maydonda yuksak ishonch va e'tirof mavjudligidan darak beradi. Bu bo'yicha parlament vakillari o'z munosabatini bildirdi.

## Fikr

### BARQAROR RIVOJLANISH SARI DADIL QADAMLAR

**Odiljon IMINOV, Oliy Majlis Senatning Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi raisi:**

Uchrashuvda O'zbekistonning BMT va uning institutlari bilan ko'p qirrali hamkorligini yanada kengaytirish va mustahkamlash masalalari, shuningdek, global siyosat va mintaqaviy hamkorlikning dolzarb jihatlari muhokama qilindi. Yurtimizda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bo'yicha chora-tadbirlarni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratildi.

BMTga a'zo 193 davlat 2015-yilda Barqaror rivojlanish maqsadlarini qabul qilgan. Shular qatorida O'zbekiston ham kambag'allikni qisqartirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, ta'lim, sog'liqni saqlash va ekologiya kabi muhim masalalarni

o'z ichiga olgan barqaror rivojlanishga oid 17 ta maqsadning 16 tasini amalga oshirishga bel bog'lagan.

Xususan, ta'lim sohasida bugun mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lami islohotlar BMT dasturida belgilangan standartlarga to'liq javob beradi va bu oldimizga qo'ygan maqsadlarga erishishda muhim asos bo'lmoqda, desak, mubolag'a emas.

Barqaror rivojlanish maqsadlari birgina BMT yoki O'zbekistonning maqsadlariga emas, ular butun insoniyatga taalluqli. Shu ma'noda, ana shu maqsadlarga erishish yo'lida hukumatlar, parlamentlar, fuqarolik jamiyati institutlari, ilmiy jamoat va biznes strukturalari va hatto fuqarolar ham birdek faollik ko'rsatishi talab etiladi.



### YUKSAK E'TIROF BIZGA G'URUR BAG'ISHLAYDI

**Tolibjon MADUMAROV, Oliy Majlis Senatning Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari:**

BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrishning yurtimizga tashrifi chog'ida bildirgan dastlabki fikriga alohida to'xtalmoqchimiz. Xususan, u shunday dedi: "O'zbekiston zaminiga men birinchi bor 20 yil avval kelgan edim va rasmiy tashrifim esa Janob Prezident Shavkat Mirziyoyev faoliyatini boshlagan yilda amalga oshirilgan edi. Mana shu vaqt davomida men kuzatib shunga iqror bo'ldimki, Prezident Shavkat Mirziyoyevning boshlagan islohotlari, O'zbekiston xalqining asosiy huquqlarini ta'minlashga qaratilgan".

Albatta, dunyoda eng nufuzli tuzilma bo'lgan BMT rahbarining ushbu e'tirofi bizga g'urur bag'ishlaydi. Va haqiqatan ham Bosh kotib tan olgan va olqishlagan islohotlar va ularning birinchi bor 20 yil avval kelgan edim va rasmiy tashrifim esa Janob Prezident Shavkat Mirziyoyev faoliyatini boshlagan yilda amalga oshirilgan edi.

Mana shu vaqt davomida men kuzatib shunga iqror bo'ldimki, Prezident Shavkat Mirziyoyevning boshlagan islohotlari, O'zbekiston xalqining asosiy huquqlarini ta'minlashga qaratilgan".

uyg'unligi va ularni qamrab olganligini ham alohida ta'kidladim.

Kezi kelganda aytish kerakki, "O'zbekiston - 2030" strategiyasida ko'zda tutilgan vazifalar Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda o'ziga xos "Yo'l xaritasi" vazifasini o'tamoqda. Bugun mazkur strategiyani amalga oshirish va uning maqsadli ko'rsatkichlariga erishish barcha davlat organlari va tashkilotlarining ustuvor vazifasi sifatida belgilangan.

Shubhasiz, uchrashuvda bildirilgan fikrlar va erishilgan kelishuvlar bu boradagi ishlarimizni kuchaytirishimizda qo'l keladi.

### GLOBAL MUAMMOLARNI BIRGALIKDA HAL ETA OLAMIZ

**Mavluda XO'JAYEVA, Qonunchilik palatasining Mehnat va ijtimoiy masalalar qo'mitasi raisi:**

Avvalo, aytish kerakki, BMT Bosh kotibining mamlakatimizga va xalqaro hamjamiyat bilan o'zaro manfaatli hamkorligi yanada mustahkamlangan dalolatdir.

Bosh kotib davlatimiz rahbari boshchiligidagi mamlakatimizda olib borilayotgan izchil islohotlar markazida inson, uning huquqlari va erkinliklari turganini alohida e'tirof etdi. Prezidentimizni "ko'prik quruvchisi, halol vositachi va tinchlik xabarchisi" sifatida ta'riflagan mehmon Shavkat Mirziyoyev bilan uchrashuv chog'ida mamlakatimiz taraqqiyoti, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, global muammolarni hal etish bilan bog'liq qator dolzarb masalalarni muhokama qildi.

Haqiqatan ham, Prezidentimiz siyosiy iqtidoriga "Inson qadri uchun" degan tamoyilni ro'yobga chiqarish, inson qadri ustuvor bo'lgan jamiyat va xalqparvar davlat barpo etish g'oyasi bilan keldi. Bu yo'lida qator islohotlar amalga oshirildi.

Shu o'rinda bir misolga to'xtalish joiz: yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz xalqimizga xos bo'lgan mehr-oqibat, odamiylik, o'zga millat va elatlariga hurmat, aql-zakovatga intilish, or-nomus, iffat, hayo kabi e'zgu fazilatlarni ham o'zida aks ettirgan.

Jumladan, unda inson huquqlari kafolatlariga oid normalar soni 3,5 barobar oshirildi, 40 dan ziyod yangi konstitutsiyaviy huquqlar muhlab qo'yildi. Ya'ni ushbu Konstitutsiyani yangi O'zbekistonning o'ziga xos "Inson huquqlari to'g'risidagi qonuni" deb atashimiz uchun barcha asosimiz bor. U bizga inson huquqlari, demokratiya, erkinlik, barqarorlik, tenglik va taraqqiyot tamoyillariga asoslangan huquqiy va adolatlari davlat qurish yo'llarini keng ochib berdi.

O'zbekiston BMTning "Inson huquqlari yo'lida harakatga da'vat" tashabbusini nafaqat qo'llab-quvvatladi, balki ularni amalga oshirish maqsadida BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining a'zosi sifatida 40 dan ziyod global, mintaqaviy va milliy darajada bajarilishi nazarda tutilgan tashabbuslarni ilgari surdi.

Umuman aytganda, BMT Bosh kotibining mamlakatimizga navbatdagi tashrifi O'zbekiston bilan BMT va uning tuzilmalari o'rtasidagi konstruktiv hamkorlikni izchil davom ettirishga, global va mintaqaviy iqtisodiy, moliyaviy va gumanitar loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga tayyorligimizni tasdiqladi.

### BIR-BIRIGA UYG'UN YO'NALISH VA INTILISHLAR

**Erkin ZOHIQOV, Qonunchilik palatasining Fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi raisi:**

Antoniu Guterrish tashrif davomida O'zbekistondagi islohotlar, uchta kompleks taraqqiyot strategiyasi - Harakatlar strategiyasi, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va "O'zbekiston - 2030" strategiyasi BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga uyg'un va ularni qamrab olishini ta'kidladim.

Darhaqiqat, BMTning "Global kun tartibi - 2030" va uning 17 ta barqaror rivojlanish maqsadi

uchta - iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik asosga tayanadi. Masalan, "O'zbekiston - 2030" strategiyasiga e'tibor qaratsak, tahlillar uning 5 ta yo'nalishtan BMT tomonidan belgilangan 16 ta barqaror rivojlanish maqsadini to'la qamrab olishini ko'rsatadi.

Strategiya doirasida 2023-yilning o'zida qabul qilingan qator qonun, Prezident Farmon va qarorlari, boshqa normativ-huquqiy

hujjatlar (jami 200 dan ziyod) Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning zarur tashkiliy-huquqiy asoslarini yaratadi. Bu esa, o'z navbatida, strategiyada belgilangan maqsad-vazifalar BMRni amalga oshirish uchun o'ziga xos "Yo'l xaritasi" vazifasini o'tashini hamda strategiyani amalga oshirish va uning maqsadli ko'rsatkichlariga erishish barcha davlat organlari va tashkilotlarining eng ustuvor vazifasi ekanidan ham dalolat beradi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, o'tgan yetti yilda maktabgacha

ta'limdagi qamrov 21 foizdan 70 foizga, oliy ta'limda esa 9 foizdan 42 foizga yetdi. Shuningdek, xotin-qizlarning ta'lim olishi uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratilishi, 2021-yildan boshlab har yili 3 mingdan ortiq qizlar uchun alohida grantlar ajratilayotganini evaziga yosh ayollarning oliy ta'lim bilan qamrov darajasi 5 baravar yaxshilandi. Universitetlarga kiradigan qizlar uchun budjet kvotasi joriy qilinishi evaziga 2021/2022 o'quv yilida talabalarning 60 foizini ayollar tashkil etdi.

Qisqa aytganda, "O'zbekiston - 2030" strategiyasida belgilangan 100 maqsad, 369 ta chora-tadbir, 190 ta vazifa, 306 ta maqsadli ko'rsatkich bajarilishi mamlakatimizning BRMga to'la erishishga xizmat qiladi. Shuningdek, BMT Bosh kotibining O'zbekistonga tashrifi so'nggi yillarda mamlakatimizda kechayotgan tub yangilanishlar, izchil va faol tashqi siyosat yurtimizning xalqaro nufuzi yanada mustahkamlanganidan dalolatdir.

"Xalq so'zi".

### MEHNAT MUNOSABATLARIDA IJOBIY NATIJALARGA ERISHILDI

Tadbirida odam savdosiga qarshi kurashish, munosib mehnat tamoyillarini ilgari surish borasida kelgusida amalga oshiriladigan vazifalar, Xalqaro mehnat tashkilotining O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan konvensiyalari yuzasidan chora-tadbirlar rejasida hamda XMT bilan hamkorlikdagi "2021 - 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekistonda munosib mehnat bo'yicha mamlakat dasturi"ni amalga oshirishga qaratilgan yuzasidan 2024-2025-yillarga mo'ljallangan "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi.

Majlisda odam savdosiga qarshi kurashish masalalari bo'yicha Ichki ishlar vazirligi, munosib mehnat masalalari bo'yicha Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi rahbarlari, hududiy komissiyalar vakillarining hisobotlari ham eshitildi. Muhokama etilgan masalalar yuzasidan Milliy komissiyaning tegishli qarori qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

### Senator va hayot

#### "MAHALLA YETTILIGI" — KATTA KUCH

"Mahalla yettilligi" - Kengash - Senat uch bo'g'inli hamkorlik doirasidagi navbatdagi uchrashuv Toshkent shahridagi Uchtepa tumanidagi Quyi Darxon hamda Degrez mahallalarida bo'lib o'tdi.

Unda Senatning Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi raisi Narimon Umarov "mahalla yettilligi" vakillari faoliyati bilan tanishdi.

Shuningdek, ushbu tadbirida xalq deputatlari Toshkent shahar hamda Shayxontohur tumani Kengashlari deputatlari, shahar hokimining o'rinbosarlari, sektorlar, mutasaddi vazirlik va idoralarning hududiy rahbarlari ishtirok etdi.

Shu jarayonda mahallalardagi xotin-qizlarning bandlik holati, ayollar tadbirkorligini yangi bosqichga ko'tarish, ularning bandligiga ko'maklashish bo'yicha belgilangan vazifalarning ijrosi yuzasidan "mahalla yettilligi" tomonidan amalga oshirilgan ishlar holati ko'zdan kechirildi. So'ngra "mahalla yettilligi" vakillari bilan suhbatlar

o'tkazildi hamda mahallalardagi mavjud muammolarning kelib chiqish sabablari va ularni bartaraf etish yo'llari xususida fikrlashildi.

Muloqot davomida yoshlar uchun minifutbol maydoni qurish, yo'lining serqatnov qismiga svetfor o'rnatish masalalari Oliy Majlis Senatining nazoratiga olingani ta'kidlab o'tildi. Xotin-qizlarni kasb-hunarga va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitish, ayol tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlar holati tahlil qilindi. Ayni chog'da tumandagi investitsiyaviy dasturlarning ijrosi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hamda aholi bandligini ta'minlash masalalari ham e'tibor markazida bo'ldi. Uchrashuv yakunida senator tomonidan mutasaddilarga zarur tavsiyalar berildi.

"Xalq so'zi".



Ta'kidlanganidek, mazkur qonun loyihasi bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga sudlarda ishlar ko'rilishida prokuror davlat manfaatlarini himoya qilish maqsadida yerga oid huquqiy munosabatlarni, davlat mulki, atrof-muhit muhofazasi haqidagi qonunchilik buzilishi, Davlat budgetini undiruvlar, o'zbo'shimchilik bilan qurilgan imoratga nisbatan mulk huquqini e'tirof etish, xususiy mulk sifatida egalik qilish va undan foydalanish faktini aniqlash hamda bojxona to'lovlarini undirishga oid ishlarida ishtirokini nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Shuningdek, prokurorning ishtirok etishi nazarda tutilgan fuqarolik, iqtisodiy va ma'muriy ishlar bo'yicha prokuror sud majlisi vaqti va joyi to'g'risida belgilangan tartibda xabar berilgan bo'lsa, u ushbu ishlarini soddan talab qilib olib o'rganishni hamda bu bo'yicha protest keltirishni mumkinligi mustahkamlanmoqda. Deputatlar qonun loyihasining ahamiyatiga to'xtalib, ushbu hujjat prokuratura organlarining odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashish borasidagi faoliyati samaradorligini kengaytirishga, sudlarda fuqarolar huquq va erkinliklarining to'laqonli himoyasiga hamda qonuniylikni ta'minlashga xizmat qilishini qayd etdilar.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan uchinchi o'qishda qabul qilindi va Senatga yuborildi.

#### Yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga yanada g'amxo'rlik ko'rsatiladi

Majlisda "Davlat boji to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 11-moddasiga qo'shimcha kiritish haqida"gi qonun loyihasi ikkinchi o'qishda ko'rib chiqildi. Qonunchilik palatasining bir guruh deputatlari tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqiy asosida ishlab chiqilgan mazkur qonun loyihasi bilan yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga davlat tomonidan ikkilamchi bozordan olingan uy-joy ularning nomiga rasmiylashtirib berilganligi uchun davlat bojini to'lashdan ozod qilish belgilanmoqda.

Deputatlar qonun loyihasida belgilanayotgan normalar yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirishga qaratilgan, uning hayotga tatbiq qilinishi esa minglab bolalarning orzu-mulohazalarini ro'yobga chiqarishga turki bo'lishini alohida qayd etdilar. Qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi.

#### Elektron (raqamli) dalillar bilan ishlash tizimi takomillashtiriladi

Kun tartibidagi navbatdagi masala - "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga elektron (raqamli) dalillar bilan ishlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi birinchi o'qishda konseptual jihatdan ko'rib chiqildi.

Ta'kidlab o'tilganidek, jahon miqyosida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan ayni zamonda elektron (raqamli) ashyolar dalillarining yangi turi sifatida namoyon bo'lmoqda. Tahlillarga ko'ra, bugungi kunda milliy protsessual qonunchilik hujjatlarida elektron (raqamli) dalillar tushunchasi, ularidan foydalanishning o'ziga xos jihatlari va shu bilan bog'liq masalalar tartibga solinmagan. Hatto elektron dalillarga qanday ma'lumotlar kiritilishi qonunchilikda belgilanmagan. Bu esa axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib, kibermakonda sodir etilayotgan huquqbuzarliklarni soni ortishiga sabab bo'lmoqda.

Huquqni qo'llash amaliyotida elektron ma'lumotlarni dalil, deb topish hamda ish hujjatlariga qo'shish bilan bog'liq qonunchilikdagi bo'shliqlar jinoiyatni fosh etish hamda adolatlari jazoni tayinlashda qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda. Shu bois elektron (raqamli) dalillarni qabul qilib olish, tekshirish va baholash tartibiga oid va boshqa normalarni milliy qonunchilikda aks ettirish zarurati quyidagidek qonun loyihasini ishlab chiqishga olib keldi.

Qonun loyihasi bilan ayrim qonun hujjatlariga elektron (raqamli) dalillarni aniqlash, to'plash, taqdim qilish, tekshirish, baho berish, qayd etish, saqlash tartiblari va bu jarayonda protsess ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini belgilash bilan bog'liq tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Muhokama davomida loyihaning konsepsiyasiga oid aniqlashtiruvchi savollar o'rta qo'yildi. Deputatlar quy palata muhokamasiga uchinchi marotaba kiritilayotgan ushbu qonun loyihasining avvalgilardan farqli tomonlari nimada ekanini bilgan qiziqdi. Qonun tashabbuskorlaridan batafsil javob olingach, qonun loyihasi birinchi o'qishda konseptual jihatdan qabul qilindi.

#### Yetkazilgan zarar Fuqarolik kodeksida belgilangan tartibda qoplanadi

Majlisda "Kosmik faoliyat to'g'risida"gi qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda ko'rib chiqildi.

Qonun loyihasi bilan kosmik faoliyatning prinsiplari, davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, soha uchun mas'ul organlar, ularning vakolatlari hamda vazifalari aniq belgilab berilmoqda.

Shuningdek, mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, mudofaa qobiliyati va xavfsizligini mustahkamlashga ko'maklashish hamda iqtisodiy tarmoqlarning raqamlashtirilishini jadallashtirish kosmik faoliyatning asosiy maqsadlaridan biri ekanini nazarda tutilayapti.

#### Bundan tashqari, quyidagilar kosmik sohada davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida ifodalanyapti:

— kosmik xizmatlarning milliy bozorini yaratish va rivojlantirish; — kosmik obyektlarni yaratish hamda ularidan foydalanish; — sohada malakali kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimini rivojlantirish; — yerni kosmik apparatlar orqali zondlash, sohalarda kosmik monitoringni bajarish. Kosmik faoliyatni amalga oshirishda

odamlarning hayoti va sog'lig'iga bevosita tahdid yaratish, ommaviy qirg'in qurollari fozaga chiqarish, koinotga joylashtirish yoki bunday qurollarni sinovdan o'tkazish, atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatish uchun kosmik texnologiyalardan va (yoki) osmon jismlaridan foydalanish hamda fazoni ifloslantirish bo'yicha xalqaro normalar va standartlarni buzish qat'iy man qilinmoqda.

Kosmik obyektning uchrilishi natijasida odamlar yoki hayvonlar nobud bo'lsa, shuningdek, fuqarolar va atrof-muhitga zarar yetkazilsa, kosmik faoliyat subyektlariga yetkazilgan zarar Fuqarolik kodeksida ko'rsatilgan tartibda qoplanishi shartli belgilanyapti.

Innovation rivojlanish, axborot siyosati va axborot texnologiyalari masalalari qo'mitasi a'zosi Shuhrat Sharafutdinov qonun loyihasi qo'mitada atroflicha ko'rib chiqilganini qayd etib, ushbu hujjat kosmik sohani tartibga solish va unga huquqiy maqom berish, kosmik faoliyat natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarni boshqarish, atrof-muhitni muhofaza qilish, tinchlik va xavfsizlikni saqlash kabi masalalar hal etilishiga xizmat qilishini aytdi.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda konseptual jihatdan qabul qilindi.

#### Kosmik loyihalarda birgalikda ishlash imkoni va zarurati

Deputatlar tomonidan "Kosmik fazo, shu jumladan, Oyni va boshqa samoviy jismlarni tadqiq qilish hamda ularidan foydalanish bo'yicha davlatlarning faoliyat prinsiplari to'g'risidagi shartnomaga (London, Moskva va Washington, 1967-yil 27-yanvar) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi haqida"gi qonun loyihasi muhokama qilindi.

Mazkur shartnoma 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 114 ta davlat



# KAMALAK JILOSIDAN YARALGAN MO'JIZA



Dunyoda mo'jizalar ko'p. Shivalab yog'ib o'tgan yomg'irdan so'ng osmon yorishib, ko'zni quvnatadigan yetti xil rangdagi kamalak namoyon bo'ladi. Bu – tabiatning o'zi mohir musavvir ekaniga yorqin dalil. Hunarmand esa shu kamalakning jilolanuvchi ranglaridan mohirlik bilan nusxa ko'chirib, xonatlasni kashf etgan. Binobarin, uni haqiqiy mo'jizaga qiyoslasak, arziydi. U oddiy mato emas, yumshoq ipakdan, hunarmand ustaning aql-zakovatidan dunyoga kelgan millatning iftixoridir.

E'tibor berilsa, xonatlasning har bir rangi hayodat, vafodan, sadoqatdan so'zlayotgandek jilva sochadi. Haqiqatda shunday, go'yo lov-lov yonuvchi xonatlas kelinchak egnida vafodorlik timsoli sifatida ko'zni quvnatib tursa, kuyov beliga bog'langan belqars bo'lib, oila mustahkamligiga guvohlik beradi. Bugun-chi? Bugun asrlarga tengdosh hunarmandchilik an'analarini bardavommi? Bebaho atlas va adras jilolari yoshlarimiz qalbini nurlantira olyaptimi?

## Hunarmandchilik

### Yangi kuch, yangi harakat

Globallashuv zamonida xonatlas, adras, beqasam va shoyi kabi asrlar osha yashab kelayotgan qadriyatlarimiz timsoliga aylangan milliy matolarimiz xorij brendlari soyasida qolib ketayotgandek, nazorimizda. Bugun ota-onam kelin bo'layotgan qiziga bozordan Turkiyada ishlab chiqarilgan matolarni tanlayotgani, Belgiya gilamlari, Italiya mebellari hadya qilinayotganini qoralamoqchi emasmiz. Orzu-havas qilibdimi olsin, ammo bu millatimizning faxru g'ururi, iftixori, o'zligi va qadriyati hisoblangan milliy liboslarimizga soya solmasligi kerak.

O'tgan yili 22-dekabr kuni Respublika Ma'naviyat va mar'ifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida Prezident Shavkat Mirziyoyev ma'naviyat boshqa sohalardan oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerakligi haqida fikr bildirib, maqom, katta ashula, baxshichilik, atlas va adras, kulolchilik va zargarlik kabi an'analarni davom ettiradigan maktablar yaratilishi muhimligi haqida aytib o'tgan edi.

Qo'qon shahridagi Mashhuraxon Haydarova rahbarlik qilayotgan "Xonatlas" modalar uyi ana shunday milliy matolar targ'ibotini olib borayotgan markazlardan biridir.

– Xalqimizning betakror qadriyat va an'analarni o'rganish, tiklash va targ'ib etishni shu muqaddas yurt farzandi sifatida o'zining burchim, deb bilaman, – deydi M. Haydarova. – Yurtimizning adrasu atlaslari butun dunyoda mashhur bo'lib, ulardan tikilgan kiyimlar har qanday kishini mafnun qiladi. Ipak matolar orasida eng talabgori adras va xonatlasdir. Shunday ekan, biz chet el brendlariga hech qachon yutqazib qo'ymaymiz. Agar yutqazganimizda xonatlasning qadri tushib, narxi bozorda arzonlashardi. Aksincha, bugun bozorda atlasning narxi 10 dollardan qimmat. Agar 8 metr atlasdan bir kiyimlik ko'ylak tikilishini nazarda tutadigan bo'lsak, bu 1 million so'mdan oshadi. Chunki atlas sof ipakdan, qo'lda to'qiladi. Bo'yoqlari tabiiy. Shuning uchun ham uning qadri hech qachon tushmaydi. Endi ayollarimizning boshqa matolarga ruju qo'yishiga keladigan bo'lsak, bu vaqtinchalik holat. Ertami-indinmi, qizlarimiz milliy matolarga qiyatishadi va xonatlas hamda adras yana ayollarimiz egnida ko'zlarini yashnatadi.

– Qadimdan hunarmandlar shahri bo'lgan Qo'qonda "Xonatlas" modalar uyining ochilishida ham ramziy ma'no borday, deyman unga.

– Chunki Qo'qonda azaldan va hozir ham xonatlas to'quvchi hunarmandlar ko'p, – deydi u. – Qo'l mehnati qanchalik og'ir



bo'lsa-da, ular otameros kasbni davom ettirishayotir. Bozorlarimizga esa sun'iy matoga atlas nusxasi bosilgan chet el matolari kirib keldi. Buni qarangi, arzonligi uchun shu matoni ayollar sotib ola boshladi. Bu mashaqqatli mehnati bilan bozorga xonatlasni chiqarayotgan to'quvchilarning ishdan bir oz qo'li sovishiga sabab bo'ldi. Bugun esa o'sha soxta matolar bozorlarimizdan chiqib ketdi. Chunki ayollar tushunib yetdi, asl mol baribir asl-da!

E'tibor qiling, "xonatlas" mohiyatan silliq ma'nosini bildiradi. Chunki u tunda ipi ham, arqoq ipi ham tabiiy ipakdan to'qiladigan bir yuzlama silliq mato. Uning tabiiy ipakdan to'qilgan eng sarasi sakkiztepkiilik xonatlasdir. Bu atlas to'qiladigan dastgohning tepkisi 8 tadir. O'tmishda atlasning bir kiyimligi yaxlit holda ham, ikki bo'lakka bo'lib ham sotilgan. Ikkiga bo'linganda bir bo'laki toqa, ikkala toqa esa bir jo'ra deyiladi...

### Usta Olim izdoshlari

Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida Otabekni qaynotasi uydan haydab yuborganida u marg'ilonlik atlas to'quvchi usta Olimnikida tunaydi. Asarda mashhur to'quvchining qo'l dastgohini ishlatib, turfa rangda jilolanadigan xonatlas to'qishi mohirona tasvirlanadi. Marg'ilonda bugun ham usta Olim izdoshlari bu kasbni davom ettirmoqda. Ulardan biri – Nabijon Toshtemirov yuzlab marg'ilonlik yoshlarga qo'lda atlas to'qish sir-asrorlarini o'rgatib kelmoqda. Nabijon akaning aytishicha, bu hunar unga otameros. Otasi 1930-yilda artelga ishga kirgan, keyinroq u "Atlas" fabrikasiga aylantirilgan. Oradan ancha muddat o'tgach, "Yodgorlik" fabrikasiga asos solingan.

– Otam meni yetaklab fabrikaga olib borgan edi, – deya eslaydi Nabijon aka. – Ammo bu hunarga qo'lim qovushmadi. Boshqa ishga o'tdim. Lekin onamning "Dadang shu kasb yo'qolib ketmasligini istagan, shuni sen davom ettirgin", degan gaplarini ikki qila olmadim. Otamdan qolgan dastgohni uzoq yillar ishlatib, eldan ko'p duo oldim. Mustaqillikdan so'ng o'zim alohida

hunarmand bo'lib, atlas to'qidim. Mahsulotlarimizga xaridor juda ko'p edi. Hozir Marg'ilon shahridagi "Hunarmand" markazida yoshlarga atlas to'qishni o'rgatish bilan birga "Yodgorlik" fabrikasida ham ishlayapman. 60 nafarga yaqin hunarmandlar bor. 40 ga yaqin qo'l dastgohlaridan foydalaniladi. Bugungi kunda 10 tasi ishlab turibdi.

Milliy liboslarimiz xorijning zamonaviy kiyim-kechaklariga raqobat qila olmayotgani haqida aytgan fikrlarimni eshitib usta Nabijon tutaqib ketdi.

gapni xorijdan kelgan professor aytaypti, biz-chi, nega bu jarayonga tomoshabin bo'lib turibmiz?

### O'zbek do'ppisining shuhrati

O'zbekiston U-23 terma jamoasi futbolchilari Qatar yashil maydonlarida mahorat ko'rsatib, pirovardida joriy yil Fransiyada o'tkaziladigan to'rt yillikning eng nufuzli musobaqasi – olimpiada yo'llanmasini qo'lga kiritdi. Bu tarixiy natija fonida yana bir hech esdan chiqarib bo'lmaydigan voqea ro'y berdi. Hujumchi Husayn Norchayev g'alabalarni boshiga o'zbek do'ppisini kiyib nishonladi. Do'ppimizni butun dunyo ko'rdi, havas qildi. Millionlab o'zbek muxlislari qalbida shu do'ppi bois milliy iftixor hissi uyg'ondi.

Buni qarangi, Husayn Norchayev kiygan o'sha do'ppi auksionda 50 million so'mga sotildi. Bu mablag' og'ir xastalikdan aziyat chekayotgan bolalarni davolash uchun shifoxonaga o'tkazildi. Va... shu voqeadan so'ng o'zbek bolalari uchun do'ppi kiyish urfga aylana boshladi. Bugun farzandlarimiz boshida o'zbek do'ppisini ko'rib, dil yayraydi.

Xuddi shunday, mashhur sportchi qizlarimiz xalqaro arenalarda oltin yoki kumush medalni qabul qilib olayotganda egniga xonatlas nimcha yoki atlas xalat kiyib chiqsa, balki bu ham urfga aylanarmidi, degan fikrga borasan kishi. Bo'lmasa, joriy yilda Toshkentda va Marg'ilonda atlas festivali hamda haftaligi o'tkazildi. Tadbirida atlas kiygan qizlarimiz ishtirok etishdi. Lekin xonatlas va adras shu tadbir doirasida qolib ketdi. Milliy liboslarimizning

real hayotga, qiz-yuvonlarimizning zamonaviy modasiga aylanishi qiyin kechmoqda.

– Atlas, adras, beqasam kabi ko'zni yashnatadigan, go'zal ranglari, takrorlanmas nusxalari bilan kishiga xush kayfiyat ulashadigan milliy matolarimizning urfdan qolishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi, – deydi "Hunarmand" uyushmasi Farg'ona viloyati boshqarmasi boshlig'i Rasuljon Mirzaahmedov. – Mustaqillik yillarida Marg'ilon adras, qadimiy nusxadagi Buxoro adras, shoyi, baxmal kabi matolarni ishlab chiqarishga e'tibor kuchaydi. Xonatlas esa bir oz e'tibordan qoldi. Chunki xonatlas to'qish juda sermehnat ish. Mayda taroq ishlatilishi, vaqt ko'p sarflanishi bois uni xorijliklar uchun nisbatan qimmatroq narxda tayyorlashga o'tildi.

Xalqimizning qadimiy osoriyatqalari, ajdodlarimizning aql-zakovati mahsuli bo'lgan tarixiy obidalar, urf-odatlar, qadriyatlar, kuy-qo'shiqlari, milliy taomlar, ko'zlarini yashnatuvchi xonatlas va adras kabi betakror matolari bor. Bularning hammasi millatning yuzi, ko'zi, o'zligi va asl qiyofasini namoyon etuvchi omillardir.

Demak, millat mavjud ekan, uning bebaho qadriyatlarini ham bardavom bo'ladi. Zero, jilosi dillarni erkalovchi xonatlasu adraslarimiz shuhrati hech qachon so'nmagay!

R. Mirzaahmedov uzoq tarixga ega bu qadimiy va serjilo matoni urfga kiritish borasida qilinayotgan ishlar haqida fikr yuritib, yana shunday dedi:

– 2020-yilda Marg'ilon shahrida Hunarmandlar markazi ochilgani soha rivojida muhim qadam bo'ldi. Bu yerda Ibrohimjon Sultonov rahbarligida xonatlas ishlab chiqarish qayta tiklandi. 200 nafar hunarmand ayol tanlab olini va ishga jalb qilindi. Bugungi kunda xonatlasning "Xosiyatxon", "Gulnozoshom", "Qora xonatlas" kabi qator qadimiy nusxalari rastalarimizni qayta bezay boshladi. Bir kunda 100 nafar chevar 8 metr dan mato to'qisa, 800 metr xonatlas tayyor bo'ladi. Shu tariqa asta-sekin xonatlas bozor rastalarida ko'paya boshladi. Bizda yaxshi bir an'ana paydo bo'ldi. Davlat tashkilotlari, muassasalarda ishlaydigan faol xotin-qizlar haftaning bir kunida xonatlas kiyib kelishi urfga aylanyapti. Bu esa milliy va qadimiy xonatlasning yana hayotga qaytishiga turki bo'lyapti. Albatta, xonatlas o'zbek milliy liboslarining malikasi sifatida ayollarimiz egniga juda yarashadi.

### Tomchidek dur minglab harsangtoshdan qimmat

Globallashuv bahonasida biror millatga xos bo'lgan yaltiroq liboslar modaga o'ch ba'zi yoshlarimizning aql-hushini o'g'irlamoqda. Bunday libos ishqibozlari esa o'zlarini eng zamonaviy kiyinadigan yigit yoki qiz deb tasavvur etishadi. Lekin tan olish kerak, ularni bu yo'ldan qaytarish anchayin mushkul kechaypti.

– Buning uchun o'zimiz qattiq ishlashimiz kerak, – deydi R. Mirzaahmedov. – Kiyinish bu shunchaki ko'rinish emas, balki o'zlikni anglashdir. Milliy liboslarni kiyish esa ona zaminga, ajdodlarga hurmat-ehtirom belgisidir. Bu tuyg'ulardan voz kechish o'z ildizini, mafkurasini yo'qotish bilan baravar-ku! Unutmaylik, tomchidek dur minglab harsangtoshlardan qimmat bo'lganidek, hunarmandlarimiz yaratgan atlas va adraslar ham ko'plab matolardan qadriroqdir.

Shuning uchun ham biz joriy yilda UNESCOning O'zbekistondagi vakolatxonasi bilan birgalikda respublikamiz hududlaridan hunarmandchilikka qiziqadigan 60 nafar xotin-qizni Marg'ilonga taklif qildik. Ular shu yil kuzda o'tkaziladigan atlas bayramida o'zlarining kolleksiyalari bilan qatnashadi. Mazkur mato to'quvchilar va to'qimachilar bayrami shahrimizda oltinchi bor o'tkazilyapti. Bayramga o'zbek matochiligi dizaynerlari taklif etiladi, hunarmandchilik ta'lim markazi ochiladi. Hunarmandchilik mahsulotlarini butun dunyoga sotish uchun xalqaro onlayn festival uyushtiriladi. Bayramga dunyoga mashhur dizaynerlar keladi. Bu targ'ibot, albatta, yoshlarimizning o'zbek milliy matosiga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi, deb umid qilamiz.

Faxriddin BOZOROV ("Xalq so'zi").


## QISQA SATRLARDA

### O'zbekistonlik muhandis kadrlar Yaponiyada ishga joylashtiriladi

O'zbekiston elchisi Muhsinxo'ja Abdurahmonov Yaponiyaning "Daito Trust Construction" korporatsiyasi prezidenti Kei Takeuchi bilan uchrashuv o'tkazdi.

Muloqotda mamlakatimizga xorijiy investitsiyalar, yuqori texnologiyalarni jalb qilish, chet el kompaniyalari bilan ta'lim va migratsiya sohasida hamkorlikni yo'lga qo'yish va rivojlantirish masalalari muhokama markazida bo'ldi.

Uchrashuv yakunida "Daito Trust Construction" korporatsiyasi rahbariyatining mamlakatimizga tashrifini tashkil etish hamda 2024-yildan boshlab bosqichma-bosqich o'zbekistonlik 100 ga yaqin muhandis kadrlarning Yaponiyada malakasini oshirish va ishga qabul qilish to'g'risida kelishib olindi.



### Zamonaviy tibbiy uskunalar taqdim qilindi

Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti qoshidagi klinikaga Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) tomonidan zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar topshirildi.

Ular xalqaro standartlarga mos tibbiy laboratoriya va ta'lim jihozlari hisoblanadi.

Qayd etilishicha, so'nggi besh yilda institutga 10 mln. dollardan ortiq investitsiya mablag'lari ajratilgan. "JICA" tomonidan jo'natilgan 7,3 mln. dollarlik zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar Orolbo'yida aholi salomatligini tiklash, kasalliklarni erta aniqlashda muhim o'rin tutadi.

### Yangi bog'cha foydalanishga topshirildi

G'uzor tumanidagi Xalqobod mahallasida tadbirkor tomonidan 25 o'rinni oilaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti foydalanishga topshirildi.

Ayni paytda tumanda 33 ta davlat hamda 5 ta davlat-xususiy sheriklik asosidagi maktabgachata'lim tashkiloti faoliyat yuritmoqda. Oilaviy bog'chalar soni esa 212 taga yetdi. Ulariga tumandagi 3 dan 7 yoshgacha bo'lgan jami 20 ming 290 bolaning 13 ming 880 nafari (68,4 foizi) qamrab olingan.

### 18 yoshli iste'dodli futbolchimiz Serbiya chempionatiga o'tdi

Serbiyaning "Yedinstvo UB" klubi o'zbekistonlik 18 yoshli Amirbek Saidov bilan shartnoma imzolaganini e'lon qildi. Ushbu klub o'tgan mavsum Serbiya birinchi ligasida 30 o'yinda 52 ochko jam'argan holda G'arbiy mintaqada 2-o'rin bilan superliga yo'llanmasini qo'lga kiritgan.



Ma'lumot uchun, Amirbek "Bunyodkor" libosida 8 ta o'yinda maydonga tushdi va 1 ta gol urgan. Shuningdek, 18 yoshgacha futbolchilar o'rtasidagi jahon chempionatida o'zini ko'rsata olgan va turli klublar e'tiboriga tushgan edi.

"Xalq so'zi".

## "Wikipedia"da o'zbek tilidagi maqolalar soni 300 mingdan oshdi.

### Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G 542. 14 275 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. O'set usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:  
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;  
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahriyrga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va umalligiga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun oshmani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahriyriyat kompyuter markazida teritil huunda operator M. Begmurotov tomonidan sahifalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.  
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:  
100066,  
Toshkent shahri,  
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.  
Navbachi muharrir N. Ostonov.  
Musahhib Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili:  
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 02.25 Topshirildi — 03.15 1 2 3 4 5 6

Xalq so'zi  
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi  
Qonunchilik palatasi Kengashi  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi  
Senati Kengashi